
“Rishton tomorqa xizmati” MChJning ochilish marosimi o‘tkazildi

□ Bugun tomorqasi bor inson uchun o‘z yeri-xazinasini, mazkur xazinaning kaliti esa-mehnat ekanligi hech kimga sir emas. Cho‘p suqsak ham unib chiqadigan unumdor yerlarimiz, mehnatsevar xalqimiz bor.

☞ Tomorqa – har bir oilaning bamosoli xazina manbai. Tumanimizda kaftdek yerdan omilkorlik bilan foydalanib, mo‘maygina daromad olayotgan oilalar ko‘plab topiladi.

□ Ezgu niyatlar bilan ekinlarga bor mehrini bergan bu insonlarning asosiy maqsadi – yaxshigina daromad olib, ro‘zg‘orini to‘kin, turmushini obod qilish hamda elimiz dasturxonini turli noz-ne‘matlar bilan to‘ldirishga qaratilgan.

☞ Bu borada Rishton tumanida tashkil etilgan “Rishton tomorqa xizmati” MChJning xizmatlari beqiyos bo‘lmoqda. «Tomorqa xizmati» yer uchastkalarida serhosil va yuqori daromad beradigan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, sifatli, serhosil, kafolatlangan urug‘ hamda ko‘chatlar yetkazib, yerga ishlov berish, mineral o‘g‘it bilan ta‘minlashda faol ishtirok etmoqda. Bu xizmatlar tomorqachilar bilan tuziladigan fbyuchers shartnomasi asosida amalga oshirilmoqda.

□ Eng ulug‘, eng aziz bayram munosabati bilan Birlashgan MFY hududidagi “Rishton tomorqa xizmati” MChJning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda tuman hokimi, sektor rahbarlari va 15 ta tumanlardan kelgan tomorqa xizmat raxbarlari xamda fermer kengashi raxbarlari qatnashishdi.

2022-09-06 06:06:33